



IJODKOR O.O'SAROV SHE'RIYATIDA AJRATIGAN BO'LAKLARNING EXPRESSIVLIKNI TA'MINLASHDAGI O'RNI

Xudoyqulova Gulhayo

Turon universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O.O'sarov she'riyatida qo'llangan ajratilgan bo'laklar va ularning expressivlikni ta'minlashdagi roli aniqlab tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ajratilgan bo'lak, emfartik urg'u, rema, mantiqiy urg'u, sintaktik butunlik, ajratish hodisasi.

Abstract: This article identifies and analyzes the isolated fragments used in O. Usarov's poetry and their role in ensuring expressiveness.

Keywords: Isolated fragment, emphatic stress, rheme, logical stress, syntactic whole, the phenomenon of separation.

Badiiy adabiyotda, xususan she'riyatda, til nafaqat axborot uzatish vositasi, balki kuchli estetik ta'sir ko'rsatish quroli hamdir. Lirik asarning ta'sirchanligini ta'minlashda leksik birliklar bilan bir qatorda sintaktik vositalar, xususan, ajratilgan bo'laklar muhim ahamiyat kasb etadi. Ajratilgan bo'laklar yagona lingvistik mohiyatga ega bo'ladi va faqat shu sintaktik-sitilistik hodisa uchun xizmat qiladi. Lekin, murakkab sintaktik butunlikning lingvistik mohiyatini izohlashda, albatta, ularning strukturaviy guruhlarini ham e'tiborga olish lozim bo'ladi.[1] O. O'sarov she'riyatida turli gap bo'laklarining ajratilishi emotsional-expressivlikni ta'minlash uchun xizmat qilgan. Ijodkor she'riyatida bu hodisaga alohida e'tibor qaratilib, hissiy ta'sirchanlikni oshirish tamoyili aksariyat she'rlarida ko'zga tashlanib turadi.

Ajratilgan sifatlovchi va ajratilgan izohlar gapda o'ziga xos kommunikativ funksiya bajarish maqsadida qo'llanadi. Bunday vaziyatda izohlanmish yoki sifatlanmish bo'lakning sintaktik vazifasiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi. Ajratilayotgan bo'lak esa o'ziga xos mantiqiy urg'u va yarim predikativlikka ega bo'lib, ahamiyatli bo'lak- remaga aylanadi. [2] Ijodkorning

*Qarshingizda turgan, shoir ya'ni man
Bugun siz-la borman, ertaga gumon.
Shodlik va visoldan she'r uchun kechgan,
O'zinning ko'ksimga otilgan kamon
Yoki
U soyasida bobolarim tin olgan
Ming yillik azim chinor,
Hozir meni asrayotgan soya –
Ajdodlarim merosi – **Vatan***

Kabi she'rlarida yuqorida ta'kidlanganidek, ajratilgan izohlovchilar gapga mantiqiy urg'u yuklab she'r ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilmoqda. Manbaalarda ta'kidkanishicha, ko'pincha ajratilgan bo'lak vazifasida aniqlovchili, infinitivli sintaktik qurilmalar keladi. O.O'sarov ijodida ham turli gap bo'laklarining ajratilganligiga guvoh bo'lish mumkin.

*Bu yoqda, **bir chetda** o'tiribman jim.*

Limmo-lim qadahdan ko'zimni uzmay.

Gunohkor misoli egilgan boshim,

Do'stlarim zavqiga pinagim buzmay.

ajratilgan o'rin holinining;

*Endi qismatdoshim, so'nggi do'st – **yurak***

Ketmoqqa shoshmoqda etayapman his

misralarida eganing;

“Ahvoli murakkab, shoshilmoq darkor,

Tashxis aniq bo'lar kasalxonada”

*Darddoshim – **yorimni** qistab shifokor,*

O'z farazida qilardi zarda.

satrlarida esa to'ldiruvchining ajratilishi emotsionallikni ta'minlayotyghanini kuzatish mumkin. Shuni ham ta'kidlash joizki, biror bir gap bo'lagingining ajratilishi gapning sintaktik qilshi yoki ajratilgan bo'laklarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqmaydi, aksincha u yoki bu muallif individual uslubining mahsuli hisoblanadi. [3] Ajratilgan bo'laklar muayyan bo'lakni izohlab, ko'pincha qo'shimcha ob'ektiv axborotni yuzaga keltiradi. Ba'zan esa bu jarayon (ajratish) so'zlovchining hissiyotiga ham bog'liq bo'lishi mumkin. Shu jihatdan ajratilgan bo'laklarni ikki guruhga bo'lish to'g'riroq bo'ladi.

a) mantiqiy ajratilgan bo'laklar;

b) hissiy ajratilgan bo'laklar.

Mantiqiy jihatdan ajratilgan bo'laklar mantiqiy urg'uga ega bo'ladi. Bunday vaziyatda qo'shimcha rema orqali so'zlovchining biror voqea, holat yoki shaxsga nisbatan bo'lgan sub'ektiv munosabati ifodalanadi. [4] Hassos shoir O.O'sarov ijodida ajratilgan bo'lakning har ikkala turini ham uchratish mumkin.

Tinch qo'y, endi, yurak, gullar aldagan

*Armonlar mozori – **kuyuk bag'rini***

O'shanda Oqqqushlar ko'z yoshla ko'mgan,

Sevgidan ko'ksimda qolgan qabrni.

Ushbu satrlarda shoirning “kuyuk bag'irni” jumlasiga mantiqiy urg'uni yuklashi she'r badiiyatini ta'minlashga xizmat qilgan.

“Bahor kelaypti!” koshki qarasa....

*Qo'lida adashim – **qorako'z o'g'li.***

Yonida qaddini g'oz tutgan esa,

*Sobiq xat tashuvchi o'rtog'im – **o'g'ri.***

Yuqoridagi misralarda hissiy ajratilgan bo'laklarni uchratamiz. Ijodkor "o'g'ri" jumlasini shunchaki ajratib qo'ymay, unga bo'lgan salbiy munosabatini ham namoyon qilgan.

Xulosa qilib aytganda, O. O'sarov ijodida boshqa sintaktik birliklar qatorida ajratilgan bo'laklar ham shoir badiiy maqsadini ochib berishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shoirning "Ajdodlar merosi", "Baxt yili", "Bahor kelayotir" kabi she'rlarida ajratilgan bo'laklardan mahorat bilan foydalanganini ko'rish mumkin. Ijodkor she'rlarida ajratilgan bo'laklar muayyan maqsad, jumlagi urg'u berish, emotsional- expressiv ma'no tashish uchun xizmat qilgan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O.A. Jumayev "Ajratilgan bo'laklarning lingvistik tahlili". "Zamonamiz tilshunosligi va xotijiy tillarni o'qitishning dolzarb masalalari". Konf.2022- yil 1-son. 140-144-bet.
2. O.Bozorov "Ajratilgan bo'laklar ishtirok etgan gaplarning kommunikativ modellari xususida". "Ilmiy xabarlar" jurnali 2021-yil 5-son .102-106
3. Mahmudov. N, Nurmonov.A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Toshkent. O'qituvchi. 1995. -235 bet
4. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi. Sintaksis. Toshkent. O'qituvchi, 1996. -248 bet
5. Sayfullayeva R, Mengliyev B, Boqiyeva G, Qurbonova M, Yunusova Z va boshqalar. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" Toshkent-2010
6. O'zbek tili grammatikasi Tim 2 Sintaksis, Toshkent Fan, 1976, -560 bet.
7. Bozorov Oybek. "MIND AND LINGUISTIK MODEL" Journal of new century innovations 12.3 (2022): 182-184